

TURKISTONDA MILLIY-OZODLIK HARAKATLARINING AHAMIYATI

Aliyeva Muattar¹

Umumta'lim maktabi

KEYWORDS

Turkiston, Jadidchilik, jadid,
maktab, Buxoro, Xiva.

ABSTRACT

Ushbu maqola Turkistonda "Jadidchilik" harakatining milliy ozodlik yo'lida tutgan o'rni va roli yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15756854**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o'ynadi [1].

Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o'ynadi.

¹ Umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:

1. XIX asr oxirlaridan - 1915 yilgacha-ma"rifatchilik;
2. 1915 yildan - 1918 yil fevraligacha-muhtoriyatchilik;
3. 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati [2].

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi (1-rasm). Ular chor



1-rasm. O'rta Osiyo (Turkiston) jadidlari

Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom-ashyo

manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yo'qlab chiqdilar. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma"rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi.

Jadidlarning xalq ma"rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
3. Turli ma"rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy va diniy ta"lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsa, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar [3].

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy

harakatlar Turkistonga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida xam ko'rindi. Chunonchi, 1906 yilda Ismoil Obidovning muxarrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muxarrirligida «Xurshid», 1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muxarrirligida «Shuxrat», Axmadjon Bektemirov muxarrirligida «Osiyo» ro'znomalari chop etildi. Lekin tez orada chor ma'muriyati ashaddiy shovinist N.P. Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib, bu ro'znomalarni man etdi [4].

Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi sharif», «Turon», 1917 yilda esa «El bayrog'i», «Kengash», «Xurriyat», «Ulug' Turkiston» gazetalari, «Oyina» jurnali kabi ommaviy axborot vositalari xam paydo bo'ldi.

Jadidchilik Stolipin reaksiyasidan so'ng yashirin tusga o'tdi. Chunonchi, Toshkent politsiyasi mahkamasiga yetkazishicha, maxfiy guruxlardan birini o'qituvchi Axmadjonov boshqargan va u, asosan, milliy ziyolilar xamda o'quvchi yoshlar vakillaridan tarkib topgan. Qo'qondagi maxfiy gurux 50 kishidan iborat bo'lgan. Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti «Taraqqiyparvar» deb atalib, maxfiy ishlar bo'yicha politsiya bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, uning raxbarlaridan biri Ubaydulla Xo'jaev bo'lgan. Shuningdek, podsho ayg'oqchilari 1909-1916 yillar davomida mudarris va maktab o'qituvchilarining o'lkani boshqarishda isloxotlar o'tkazish kerakligi xaqida targ'ibotlar olib borayotganliklarini bir necha marotaba xukumatga yetkazganlar.

Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi xaqidagi o'z g'oyalarni xayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta'sis majlisini chaqirish bilan bog'langanliklari xam diqqatga sazovor. 1917-yil iyulda «Sho'roi islomiya»dan «Sho'roi Ulamo» tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo ta'sis majlisida o'rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo'shilishiga

va «Turk Adami markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi [5].

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi.

Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati ikki guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo'lingan edi.

Xiva jadidchiligi XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi [6].

Panturkizm. 1917-yil jadidchilik harakati o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Fevral inqilobidan so'ng o'zbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qiladilar va "Turon" uyushmasi zaminida "Shuroi Islomiya" jamiyati tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori Abduraufqoriev, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev). 1917-yil mart oyida ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targ'ibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov to'g'risida ma'lumot berish bilan shug'ullandi. Uning dasturini Munavvarqori yozgan edi. Jadidlar joylarda "Shuroi Islomiya" tizimi yaratilishining tashabbuskori bo'ldilar. Turkistonga muhtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi [7].

Hulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jadidchilik harakatlari, millat fojiasini yorqin aks ettirish, ma'lum ma'noda, millatni zulmatdan asrab qoldi. Shu jumladan jadidchilik harakati namoyondalari yaratgan asarlar ham xalqimiz qalbiga chuqur kirib bordi. Ahamiyatlisi, bu davr adabiyotida aks etgan muammolar bugungi kun uchun ham dolzarbligicha qolmoqdaki, jadid davri adabiyotini qancha keng targ'ib qilsak, o'rgansak, yosh avlodda vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish uchun oila, mahalla va ta'lim muassasalarining birgalikdagi faoliyatini ta'minlash jamiyatda ma'naviyaxloqiy muhitni sog'lom bo'lishida o'ziga xos ahamiyatga ega.

"Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"da yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, tariximiz

va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish kabilar asosiy vazifalar, shuningdek, harbiy xizmatchilarning ongida vatanparvarlik, faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashda ma'rifatparvar jadidchilarning o'rne cheksiz deb bilamiz va o'rganamiz.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov Sirojiddin; Rajabov Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. "Jadidizm". Ensiklopedik lug'at. 1. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988.

3. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.
4. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999.
6. Alimova D., Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy, borba za nezavisimost, Toshkent, 2000.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000.